O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI HOKIMINING QARORI

Samarqand sh., Ko‘ksaroy maydoni, 1-uy.

2024 - yil 2 - fevral 29-7-0-Q/24 Samarqand viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-dekabrdagi “Ma’muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 688-son qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi “Ma’muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-76-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda so‘ngi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish maqsadida,

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-dekabrdagi “Ma’muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 688-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining ayrim qarorlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining raqamlashtirish bo‘yicha maslahatchisi A.Anvarov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **E.Turdimov**

Samarqand viloyat hokimining
2024-yil 2-fevraldagi
29-7-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Viloyat hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Viloyat hokimining 2012-yil 24-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-dekabrdagi 356-sonli “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasini yanada rivojlantirish va uning mablag‘laridan samarali foydalanish to‘g‘risida”gi qarori haqida”gi 266-sonli qarorining 2-bandi ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi xatboshilaridagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi” so‘zlari “Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. Viloyat hokimining 2017-yil 23-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori haqida”gi 563-son qarorining 2-bandi sakkizinchi xatboshida keltirilgan “O‘zinfokom” markaziga ” so‘zlari “UZINFOCOM” yagona integratorga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

3. Viloyat hokimining 2017-yil 27-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrdagi 939-sonli “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni taminlash chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori haqida”gi 707-son qarorining rus tili matnidagi 2-bandi ikkinchi xatboshidagi “информационных технологий и коммуникаций” so‘zlari “Цифровые технологии” so‘zlari bilan almashtirilsin.

4. Viloyat hokimining 2018-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-maydagi 362-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining dasturiy kompleksini joriy yetish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori haqida”gi 326-son qarorining 2-bandi o‘n to‘rtinchi xat boshidagi
“Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi” so‘zlari “Raqamli texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. Viloyat hokimining 2018-yil 22-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-oktabrdagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo‘yicha ustuvor loyihalarning hududiy manzilli ro‘yxatlarini shakillantirish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi qarori haqida”gi 680-son qarorida;

a) 1-bandining birinchi xatboshidagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini” so‘zlari “Raqamli texnologiyalar” so‘zlari bilan almashtirilsin.

b) 2-bandining birinchi xatboshidagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini” so‘zlari “Raqamli texnologiyalar” so‘zlari bilan almashtirilsin.

d) 3-bandining birinchi xatboshidagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini”

so‘zlari “Raqamli texnologiyalar” so‘zlari bilan almashtirilsin.

e) 4-bandining ikkinchi xatboshidagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini” so‘zlari “Raqamli texnologiyalar” so‘zlari bilan almashtirilsin.

f) 5-bandining birinchi xatboshidagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini” so‘zlari “Raqamli texnologiyalar” so‘zlari bilan almashtirilsin.